XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-dekabr VII-2-020-13-190-K/24 To‘rtko‘l tumani

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining 2023-yil 27-maydagi VI-63-64-13-190-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-sonli Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan To‘rtko‘l tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlarining yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish haqidagi xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining 2024-yil 13-sentabrdagi VI-87-144-13-190-K/24-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlari palatasining To‘rtko‘l tumani filiali rahbari S.Ibadullayevning To‘rtko‘l tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlarining yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish haqidagi xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining 2024-yil 13-sentabrdagi VI-87-144-13-190-K/24-sonli qaroriga asosan belgilangan chegara chizig‘iga muvofiqlashtirish uchun tumandagi shahar, shaharcha va ovullarning chegaralarini belgilash ishlari qayta bajarilganligini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2024-yil 31-oktabrdagi 01-10/16-10/97-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining 2023-yil 27-maydagi VI-63-64-13-90-K/23-sonli qaroriga asosan tuman hududlarining umumiy perimetri 1434228 metr, umumiy maydoni 738721,75 gektar To‘rtko‘l tumanidagi shahar,

shaharcha va ovullarining umumiy perimetri 1451577 metr, umumiy maydoni 754160,48 gektar deb o‘zgartirilsin.

3. To‘rtko‘l tumanidagi To‘rtko‘l shahri, “Ullibog‘”, “Tozabog‘yop”, “Ko‘hna To‘rtko‘l”, “Sho‘raxon”, “O‘zbekiston”, “Oqqamish” va “Otauba” ovullarining umumiy perimetri va maydonlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

Jumladan:

To‘rtko‘l shahri umumiy peremetri 32019 metr, umumiy maydoni 2171,89 gektar;

“Ullibog‘” ovuli umumiy peremetri 31362 metr, umumiy maydoni 2699,94 gektar;

“Tozabog‘yop” ovuli umumiy peremetri41255 metr, umumiy maydoni 4545,21 gektar;

“Ko‘hna To‘rtko‘l” ovuli umumiy peremetri 38405 metr, umumiy maydoni 4393,26 gektar;

“Sho‘raxon” ovuli umumiy peremetri 49722 metr, umumiy maydoni 4610,15 gektar;

“O‘zbekiston” ovuli umumiy peremetri 54433 metr, umumiy maydoni 5755,24 gektar;

“Oqqamish” ovuli umumiy peremetri 116681 metr,umumiy maydoni 11886,82 gektar;

“Otauba” ovuli umumiy peremetri 586858 metr, umumiy maydoni 641906,87 gektarga o‘zgartirilsin.

4. Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining 2023-yil 27-maydagi VI-63-64-13-90-K/23-sonli qarorining 1- va 2-ilovalariga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritilganligi inobatga olinsin.

5. Ushbu qarorning tasdig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesidan so‘ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

SHAMURATOV
RUSTAM AZATOVICH

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2024-yil 13-dekabrdagi
VII-2-020-13-190-K/24 -son qaroriga
1-ilova

To‘rtko‘l tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	To‘rtko‘l shahri	32019	2171,89
2	Nurliyo‘l shaharchasi	5911	101,54
3	Amirobod shaharchasi	8680	167,11
4	Tozabog‘ shaharchasi	10475	175,84
5	Turkmanko‘l shaharchasi	13497	327,08
6	Miskin shaharchasi	28722	1590,13
7	Tozabog‘yop ovuli	41255	4545,21
8	Ullibog‘ ovuli	31362	2699,94
9	Ko‘hna To‘rtko‘l ovuli	38405	4393,26
10	Sho‘raxon ovuli	49722	4610,15
11	O‘zbekiston ovuli	54433	5755,24
12	Oqboshli ovuli	31055	3219,08
13	Oqqamish ovuli	116681	11886,82
14	Paxtachi ovuli	23314	1837,28
15	Otayurt ovuli	23144	1896,19
16	Kaltaminor ovuli	88318	18171,92
17	Yonboshqal’a ovuli	53167	11929,70
18	Ko‘kcha ovuli	96389	14500,38
19	Paxtaobod ovuli	39972	8773,98
20	Qumboskan ovuli	78198	13500,87
21	Otauba ovuli	586858	641906,87
	Jami	**1451577**	**754160,48**

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2024-yil 13-dekabrdagi
VII-2-020-13-190-K/24 -son qaroriga
2-ilova

To‘rtko‘l tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi